

TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Shodiyev Faxriddin

*Uzbekistan-Finland PI Head of the Department of Theory of Primary Education,
associate professor
Shodiyevbt@gmail.com*

Jahon ta'lim tizimidagi raqobatbardosh jarayonlar mohiyati shuni ko'rsatmoqdaki, biz bu kun butunlay yangicha go'yalar hamda muqaddas vazifalar bilan yuksak maqsadlarga amaliy jihatdan yondashishimiz kerak. Buning uchun "Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz". Zero, ilm-u urfon bellashuvi borasida komillik chaqmog'ini chaqayotgan dunyoga tafakkur yog'dusi bilan yuz ochayotgan mustaqil mamlakatimizning global maqsadi yuksak andozalarda hur diyorimizda barcha vatandoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish, eng zamonaviy kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini mantiqli belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat qomusiy huquqini oqilona ta'minlashni xalqaro mezonlarda mazmunan hamda texnologik boyitishdir. Jadidchi bobolarimiz uqtirganlaridek, ta'lim-tarbiya biz uchun jondan aziz ne'matga aylanib bormog'i shartdir. Shunga ko'ra, qomusiy jihatdan, ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratishimiz hamda ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlashimiz, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirishimiz, ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishimiz, ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga keltirishimiz shartdir.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb tan olinishi ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplariga yangicha ruh bag'ishlaydi. Bunda har bir vatandoshimizning qomusiy manfaati yanada ravshanroq yuzaga chiqadi: ta'lim va tarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi, ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga ega ekanligi, ta'limning uzluksizligi, uzviyligi va izchilligi, 11 yillik ta'limning majburiyligi, ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, jamiyatda pedagog xodimlar ijtimoiy himoyasining kafolatlanganligi, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish. Shuningdek, davlatimiz jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olishda teng huquqlarni kafolatlaydi. Bu maqsadlarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish uchun ta'lim tizimimizning mazmuni quyidagicha isloh etilmoqda: ta'lim tashkilotlari maqsadli hamda xalqaro talablarga muvofiq rivojlantirilmoqda. "Yoshlarimizning milliy va umumbashariy

qadriyatlar ruhida, har tomonlama sogʻlom va barkamol boʻlib voyaga yetishi uchun taʼlim-tarbiya sohasida ulkan oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda”. Darhaqiqat, taʼlim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni va taʼlim dasturlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish qoʻllab-quvvatlash kuchaytirilmoqda, shu bilan birga, etakchi klassik oliy taʼlim muassasalari maqomini belgilash va ularni qoʻllab-quvvatlash qayta isloh etilmoqda, ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) taʼlim olishni tashkil etish orttirilmoqda, kadrlar tayyorlash va taʼlimga oid davlat va xalqaro dasturlar asosida oʻqitish takomillashtirilmoqda, oilada yoki oʻzi mustaqil ravishda bilim olgan, shuningdek, majburiy umumiy oʻrta taʼlimni toʻliq olmagan fuqarolarga akkreditatsiyadan oʻtgan davlat taʼlim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan oʻtish huquqi berilmoqda, taʼlim muassasalarida kadrlar tayyorlash boʻyicha davlat buyurtmalarini mehnat bozorining talablariga muvofiq shakllantirilmoqda, xorijiy mamlakatlarning fuqarolari Oʻzbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga va qonun hujjatlariga muvofiq taʼlim olish huquqiga ega boʻlishiga keng inkoniyatlar yaratilmoqda, Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan fuqaroligi boʻlmagan shaxslar taʼlim olishda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega boʻlishi taʼminlanmoqda. Bu ulkan imkoniyatlar yaqin orada mustaqil fikrlaydigan, bir necha zamonaviy kasblarni puxta egallagan yosh avlodni qobil boʻlib ulgʻayishini yuzaga chiqaradi. Eng muhimi, bu yaratilayotgan inkoniyatlardan maqsad yosh avlod fikr kishisi boʻlib ulgʻayishi shartdir. “Fikr kishisi hech qachon oʻzgalarga koʻr-koʻrona ergashmaydi, munosabat bildirish kerak boʻlganda jim turmaydi”. Bizga ana shunday qobiliyatli hamda zehniyatli, jahon maydonida turib beradigan kadrlar kerak. Shu yuksalish yoʻlida Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim tizimining eng muhim boʻgʻinlaridan biri boʻlgan Boshlangʻich taʼlim davlat taʼlim standartlari, davlat taʼlim talablari va taʼlim dasturlarini yoki ulardan birini amalga oshiruvchi taʼlim shakllaridan biridir. Bugungi kunda taʼlim tizimimizda quyidagi bilim olish turlari uygʻunligi davom etayapti: maktabgacha taʼlim, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim, kasbiy taʼlim, oliy taʼlim, oliy taʼlimdan keyingi taʼlim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari taʼlim. Taʼlim tizimdagi bu uygʻunlik mazmunan qanchalik takomillashtirish borsa, uning samarasi shunchalik oshib boradi. Boshlangʻich taʼlim, taʼbir jouz boʻlsa, komillik strategiyasining oʻq tomiridir. Zotan, oʻquvchilar shu taʼlim jarayonida chin vatanparvarlik tafakkurini onggiga singdiradilar, asosiy fanlarning mohiyatini anglab etadilar. Bu esa amaldagi prezidentning: “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallaydigan, mustakam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi” degan hikmatli mushohadalariga hamohangdir. Ana shu taʼlimiy gʻoyalardan kelib chiqqan holda, boshlangʻich taʼlim mazmunini va oʻquvchilar ongini bilim, koʻnikma, malaka, kompetensiya kabi umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari yogʻdusi bilan toʻldirish bosh maqsadimizdir. Darhaqiqat, taʼlim tizimimizni xalqaro oʻquv va oʻqituv tajribalari oʻlchovida takomillashtirish va milliy qadriyatlarimiz bilan toʻyintirishimiz, yoshlarimizni sayyoramizning eng qobil kadrlari safiga qoʻshishimiz jahoniy yuksalishimiz garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2022-yil. 416-bet.
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston,2018, 508-b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston,2017, 488-b.
4. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi.-Samarqand, SamDU nashri,2019, 390-b.
5. Umumiy o‘rta ta‘limning DTS va o‘quv dasturi(1-4-sinf). –T.: 2017-yil.
6. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 522-524.
7. Teshaeovich, S. F. (2022). The Role of Children's Literature in the Formation of Professional Competence. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 235-240.
8. Norkobilovna, J. S., Sadikovich, K. N., Teshaeovich, S. F., Gulmurodovna, S. L., & Akramkromovich, S. (2021). Cultural and Historical Prerequisites for the Development of the Innovative Potential of the Subject of Creativity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2982-2986.
9. Fakhridin, S., Abdimurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. Journal of Advanced Zoology, 44.
10. Shodiyev, F., & Bahramova, M. (2023, June). Technology For Conducing Interactive Lessons. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 16-18).
11. Teshaeovich, S. F. Interactive Technology in Primary Education. International Journal on Integrated Education, 3(10), 76-77.
12. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 73-78.
13. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 4(6), 108-111.
14. Teshaeovich, S. F. (2021). Essence of children's literature in the formation of professional competence.
15. Teshaeovich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 542-550.
16. Shodiyev, F. (2024). TRAINING OF FUTURE INNOVATIVE AND CREATIVE THINKING PRIMARY SCHOOL TEACHER. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 189-195.

17. Drobchenko, N. V., & Fakhridinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING. Retrieved from <https://www.digitalfashionsociety.org/index.php/conference/article/view/114>
18. Fakhridinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
19. Fakhridinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
20. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI O'STIRISH. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(23), 41-44. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/rus/article/view/8899>
21. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/12408>
22. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNİ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3626>
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. *Научный Фокус*, 1(7), 46-52. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/12334>
24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(6), 56-59. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/8866>
25. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 16-18. Retrieved from <https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/474>
26. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 142-148. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15021>
27. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 196-199. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/11066>
28. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 43-46. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15000>

29. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/14785>

30. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/12039>